



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№6(3)

2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 246 sahifa,
9-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbiarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

O'zbek bolalar folklorining etnopsixologik jihatlarini.....	10
<i>Alimbayeva Shaxlo Tursunovna</i>	
The Convergence of Educational Paradigms: Policy Borrowing, Adaptability, and Institutional Reform in Uzbekistan's Modern School System	15
<i>Lola Rakhmonovna Djurakulova, Karina Eduardovna Bushevskaya</i>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida valeologik kompetensiyalarni rivojlantirish	21
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li, Mamatqulov Davronbek Abdig'apparovich</i>	
Autizm spektridagi buzilishlarga ega bolalar rivojlanishida STEAM ta'lim texnologiyasining pedagogik ahamiyati.....	25
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Zuhra Adizovna</i>	
Ozodlikdan mahrum qilingan shaxsning jazoni ijro etish muassasasidagi moslashuvining psixologik xususiyatlari	30
<i>Saydullayeva Muxabbat Abdullayevna</i>	
Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati.....	33
<i>Shodiyeva Gulruh Xayrullayevna, Ergasheva Farog'at</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida gamifikatsion topshiriqlar asosida divergent fikrlashni shakllantirishning didaktik mexanizmlari.....	37
<i>Jalilov Muhammadali Abdumutalibovich, Saloydiovva Sevaraxon Mahammadsharif qizi</i>	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirish	41
<i>Sayfiddinova Muxlisa Sayfiddinovna</i>	
Harbiy xizmatchilar oilalarida inqirozlarni profilaktika qilishda ijtimoiy-psixologik xizmatlarning o'rni	45
<i>Sh. S. Kurbanova</i>	
Yosh onalarning pedagogik kompetensiyalariga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar	49
<i>Yuldasheva Zulayxo Sadullayevna</i>	
Роль нарративно-экспозиционной терапии при работе с детьми, репатрированными из ЗОН вооружённых конфликтов	53
<i>Юлдашев Санжар Рузимуродович</i>	
Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar: muammo va uning yechimlari.....	57
<i>Mamatova Karomat Ilhomjonovna</i>	
Bitiruvchi sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish jarayonlarida individual yondashuvning ahamiyati ...	61
<i>Asilova Sanobar Xatamboyevna</i>	
Optika bo'limini o'qitishning didaktik asoslari.....	66
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Shomurodova Maftuna Tolibjon qizi, Rayimova Muazzam Xolbobo qizi</i>	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarida kompyuter grafikasiga oid kompetensiyalarni rivojlantirish uchun Gamified Project-Based Learning asosidagi integrativ metodika ishlab chiqish	69
<i>D. Y. Pulatova, G' R. Berdiyev</i>	
Psixologik savodxonlikning o'smirlar akademik savodxonligiga ta'siri.....	76
<i>Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika darslarida loyihaviy ta'limni qo'llashning pedagogik asoslari	81
<i>Ismonov Turgunpulat To'liqinovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiatga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda mashg'ulot, ekskursiya va sayrlardan foydalanish metodikasi.....	84
<i>Maripova N. X.</i>	
Individual yondashuvga asoslangan pedagogik mexanizmlarni amaliyotga joriy etish metodikasi	88
<i>Nurova Malika Abduzairovna</i>	



Communicative Learning as a Basis for Critical Thinking Development	92
<i>Petrosyan Nelya Valerevna, Khalilova Farangiz Khoshimovna</i>	
Nikohdan oldingi hissiy-emotsional kompetentlikni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik omillari	97
<i>Raximova Gulxayo Alisherovna</i>	
Talabalarda chidamkorlikni rivojlantirishning ahamiyati	100
<i>Shaalimov Muxtorsha Atxamovich</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ertaklar orqali tarbiya berish usullari	105
<i>X. Sh. Ochilova</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol ta'lim texnologiyalarining samaradorligi	109
<i>Xalilova Dilnoza Furkatovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kitobxonlik madaniyatini kreativ yondashuvlar asosida shakllantirish imkoniyatlari	112
<i>Xolyigitova Bahoroy Kimsanboyevna</i>	
Bo'lajak buxgalleriya hisobi va audit sohasidagi talabarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari	117
<i>Arziyeva Visola Namozovna</i>	
Boshlang'ich ta'lim mazmunini tizimlashtirishning didaktik va aksiologik tamoyillari	121
<i>Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna</i>	
Munis Xorazmiy devonining o'rganilishi va uning tarixiy-etimologik tahlili	125
<i>Sharopova Durdona Azim qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar asosida pedagogik kompetensiyalarni takomillashtirish asoslari	129
<i>Tashmatova Gulzoda</i>	
Maktabgacha ta'limda steam yondashuvining didaktik imkoniyatlari	133
<i>To'xtaboyeva Maftunaxon G'aniyevna</i>	
Raqamli pedagogikaning zamonaviy ta'lim rivojlanishidagi o'rni	137
<i>Tojiyeva Asila Abdimannon qizi, Pardayeva Ra'no Eshboyevna</i>	
Talabalar jamoasida uchraydigan nizoli vaziyatlarning diagnostik tahlili	142
<i>Vaxobova Muxtabar Nurmuhimmat qizi</i>	
Kreativ yondashuv asosida talabalarining kasbiy sifatlarini shakllantirish	146
<i>Xolmatova Gulhayo Ulug'bekovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasining psixologik asoslari	151
<i>Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna</i>	
Umumta'lim maktab direktorlarining boshqaruv samaradorligini oshirishda media va axborot savodxonligini rivojlantirish modelini takomillashtirish	156
<i>Abdulxakimova Ziyoda Latibjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsda muammoli STEAM loyihalarini yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish	161
<i>M. S. Achilova</i>	
Optik tushunchalarni shakllantirish metodikasi	165
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Cho'liyeva Sofiya Sobirjon qizi, Shog'dorova Moxinur Bobomurot qizi</i>	
PHET simulyatsiyalari yordamida optikani o'rgatish	169
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Toshmirzayeva Buvioysha Panji qizi, Ruziyeva Jasmina Sirojiddin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy fikrlashini o'ziga xos jihatlari	173
<i>Gafurova Shoxista Erali qizi</i>	
O'zbekiston hududlarida yengil atletika infratuzilmasi va sportchilar tayyorlash tizimini tashkiliy-boshqaruv asoslari	178
<i>Hakimova Mushtariybonu Hamidovna, Tursunpolatova Ziyoda Jahongir qizi</i>	
O'zbekistonda mustaqil fikrlash muammosi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili	181
<i>Tursunova Dilbar Zafarovna</i>	

MUNDARIJA	CONTENTS	Methodology for Developing Competencies in Primary Education and the Communicative Analysis of Oral Speech.....	184
		Turumbetova Aygul Yusupbaevna	
		Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "Tarbiya" darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga o'rgatish metodikasi.....	189
		Ummatkulova Sayyora Shovkatovna	
		Boshlang'ich sinflarda matematika ta'limini tashkil etish.....	191
		Saydullayeva Shabbona Ashraf qizi, Axtamqul Azamqulov, Anvar Yusupov	
		Metakognitiv xabardorlik ko'rsatgichlarining ta'lim shakliga bog'liqligi.....	195
		Ermatova Robiya Bekjonali qizi	
		The Integration of Artificial Intelligence Technologies in Esp Instruction: Enhancing Professional Communicative Competence in Higher Education.....	199
		Ismailova Shaira Ferdausovna	
		Intercultural Communicative Competence in English Language Teaching: Preparing Global Learners	204
		Maqsudova Gulnoz Olimovna	
		Teaching Reading Through Multimodal Texts: Enhancing Comprehension and Engagement in EFL Classrooms.....	208
		Norboyeva Shahnoza Jo'rabek qizi	
		Digital Technologies and Cognitive Competence Development in English Language Teaching.....	212
		Sharipova Muhabbat Erkinovna	
		Raqamli ta'lim muhitida sun'iy intellektga asoslangan elektron o'quv resurslarini loyihalashning konseptual-pedagogik asoslari va didaktik muammolar tahlili.....	216
		Shirinov Feruzjon Shuxratovich, Raxmonov Ziyodillo Xusanovich	
		Boshlang'ich ta'limda timss mezonlari: kontekstli muammolarga yondashuv	222
		Yo'ldoshev Farhodjon Baxtiyor o'g'li	
		O'qituvchilarning qadriyatlari va stressga barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning psixologik tahlili	227
		Yuldashova Dilafuz Shavkatovna	
		Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish pedagogik muammo sifatida	229
		Safarova Madina Azamat qizi	
		Социально-психологические особенности отношения студентов к использованию искусственного интеллекта chatgpt в образовательной деятельности.....	233
		Аскарлова Гулрух Оринбасаровна	
		Диалог культур в произведениях русскоязычных писателей Узбекистана XXI века	239
		Чернова Татьяна Алексеевна, Отакулов Фолиб	
		Русский язык как пространство межкультурной коммуникации в литературе Узбекистана	242
		Чернова Татьяна Алексеевна, Имамов Жавлонбек, Абдурахмонов Элбек	



BOSHLANG'ICH TA'LIM MAZMUNINI TIZIMLASHTIRISHNING DIDAKTIK VA AKSIOLOGIK TAMOYILLARI

Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna

Termiz davlat pedagogika instituti dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich ta'lim mazmunini aksiologik paradigma asosida tizimlashtirishning didaktik va aksiologik tamoyillari kompleks tahlil qilinadi. Falsafiy, psixologik va didaktik manbalar tahlili asosida ta'lim mazmunini qadriyatga yo'naltirilgan holda rekonstruksiya qilish zarurati asoslanadi. Inson qadriini oliy mezon sifatida tan olish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi, innovatsionlik, tizimlilik hamda amaliyotga yo'naltirilganlik tamoyillari ochib beriladi. Aksiologik paradigmaning besh komponentli tuzilishi (qadriyatli, kognitiv, faoliyatli, refleksiv, integrativ) hamda "mazmun-qadriyat-faoliyat-refleksiya" integratsiyasiga asoslangan pedagogik model tarkibi keltiriladi. Tamoyillar tizimi ta'lim mazmunini tanlash, tizimlashtirish va baholash mezonlarini qayta ko'rib chiqish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: aksiologik paradigma, ta'lim mazmuni, didaktik tamoyillar, qadriyatli kompetensiya, integratsiya, tizimlashtirish, pedagogik model, boshlang'ich ta'lim.

Abstract: The article provides a comprehensive analysis of the didactic and axiological principles of systematizing the content of primary education on the basis of the axiological paradigm. Based on the analysis of philosophical, psychological, and didactic sources, the necessity of reconstructing educational content in a value-oriented direction is substantiated. The principles of recognizing human dignity as the highest criterion, the harmony of national and universal values, innovation, systematicity, and practice-oriented learning are revealed. The five-component structure of the axiological paradigm, consisting of value-based, cognitive, activity-based, reflective, and integrative components, is presented. The article also describes the structure of a pedagogical model based on the integration of "content - value - activity - reflection". The proposed system of principles makes it possible to reconsider the criteria for selecting, systematizing, and evaluating the content of primary education.

Key words: axiological paradigm, educational content, didactic principles, value-based competence, integration, systematization, pedagogical model, primary education.

Аннотация: В статье комплексно анализируются дидактические и аксиологические принципы систематизации содержания начального образования на основе аксиологической парадигмы. На основе анализа философских, психологических и дидактических источников обосновывается необходимость реконструкции содержания образования в ценностно-ориентированном направлении. Раскрываются такие принципы, как признание человеческого достоинства высшим критерием, гармония национальных и общечеловеческих ценностей, инновационность, системность и практическая направленность. Представлена пятикомпонентная структура аксиологической парадигмы, включающая ценностный, когнитивный, деятельностный, рефлексивный и интегративный компоненты, а также содержание педагогической модели, основанной на интеграции "содержание - ценность - деятельность - рефлексия". Система принципов позволяет пересмотреть критерии отбора, систематизации и оценки содержания образования в начальной школе.

Ключевые слова: аксиологическая парадигма, содержание образования, дидактические принципы, ценностная компетенция, интеграция, систематизация, педагогическая модель, начальное образование.

KIRISH

Hozirgi postindustrial taraqqiyot sharoitida ta'lim tizimi oldida turgan ustuvor vazifalarning mazmuni tubdan o'zgarimoqda. An'anaviy pedagogik yondashuvlarda asosiy e'tibor o'quvchining bilimni kengaytirish va axborotni o'zlashtirish darajasiga qaratilgan bo'lsa, zamonaviy ta'lim nazariyasida shaxsning ma'naviy-axloqiy, aksiologik va refleksiv rivojlanishini ta'minlash masalasi markaziy o'rinni egallamoqda. Global axborotlashuv, virtual madaniyat ta'sirining kuchayishi va ijtimoiy munosabatlarning dinamik o'zgarishi inson ongiga ta'sir etuvchi qadriyatlar tizimining transformatsiyalashuviga olib kelmoqda. Bunday sharoitda ta'lim muassasalari

faqat akademik bilim beruvchi institut sifatida emas, balki shaxsning ma'naviy immunitetini shakllantiruvchi ijtimoiy-madaniy makon sifatida ham faoliyat yuritishi zarur bo'lib qolmoqda.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "2030-yilgacha xalq ta'limini rivojlantirish konsepsiyasi" hamda "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ta'lim mazmunini insonparvar va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Biroq amaliyot tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, ayrim hollarda ta'lim mazmunidagi qadriyatli komponentlar formal xarakterda aks etmoqda: o'quv materiallarida milliy qadriyatlar mavjud bo'lsa-da, ularning o'quvchi hayotiy tajribasi va ijtimoiy faoliyati bilan integratsiyasi yetarli ta'minlanmagan. Natijada o'quvchilarda bilim va qadriyat o'rtasida ichki ma'naviy bog'liqlik to'liq shakllanmaydi. Bu esa boshlang'ich ta'lim mazmunini aksiologik paradigma asosida qayta tizimlashtirishni va buning ilmiy asoslangan didaktik tamoyillarini belgilashni taqozo etadi. Mazkur maqolada ta'lim mazmunini tizimlashtirishning didaktik va aksiologik tamoyillari, paradigmanning komponentli tuzilishi hamda pedagogik model tarkibi ko'rib chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

"Aksiologiya" tushunchasi falsafiy kategoriya sifatida qadriyatlarning tabiati, inson hayotidagi o'rni va ijtimoiy funksiyalarini o'rganishga qaratilgan nazariy yo'nalish hisoblanadi. Falsafiy maktablarda qadriyat muammosiga turlicha yondashuvlar shakllangan bo'lib, M.Sheler qadriyatlarni inson ongidan mustaqil mavjud bo'luvchi ma'naviy fenomen sifatida izohlagan, I.Kant esa insonning axloqiy kamoloti va ma'naviy erkinligini qadriyatlar orqali anglatgan.

Klassik pedagogika vakillari - Ya.A.Komenskiy, J.J.Russo, I.Pestalossi va F.Frebel - inson tabiatining ezgulik sari intilishini tan olib, ta'limni tabiiy qadriyatlarni rivojlantirish vositasi sifatida talqin qilgan.

XX asrda gumanistik pedagogika yo'nalishi bilan J.Dyui, K.Rojers va A.Maslou insonparvarlik qadriyatlarini shakllantirishni tarbiyaning asosiy maqsadi deb belgilagan.

Pedagogik aksiologiyaning rivojlanishida B.M.Bim-Bad, N.D.Nikandrov, V.A.Slastenin, V.M.Rozin, P.G.Shchedrovitskiy kabi olimlarning ishlari muhim o'rin tutadi.

V.A.Slastenin va G.I.Chijakovaning fikricha, pedagogik aksiologiyaning ustuvor vazifalari ta'lim va tarbiya tizimining qadriyatli asoslarini aniqlash, milliy ta'limning rivojlanish strategiyasiga qadriyatli yondashuvlarni integratsiya qilish hamda pedagogik hodisalarning qadriyatlilik mezonlarini shakllantirishdan iborat. Slastenin ta'kidlashicha, pedagogik qadriyatlar tarbiya jarayonida asta-sekin interiorizatsiyalashadi, ya'ni shaxsning ichki dunyosiga singib, uning ongli munosabatlari va faolligiga aylanadi.

O'zbekiston pedagogikasida N.Sayidahmedov, O.Musurmonova, R.Mavlonova, O.Tolipov, Q.Nazarov va boshqalarning ishlarida ma'naviy-axloqiy tarbiya, kompetensiyaviy yondashuv va milliy qadriyatlarni o'quv jarayoniga singdirish masalalari tahlil qilingan.

Mavjud tadqiqotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, asosiy e'tibor umumiy pedagogik konsepsiyalar va tarbiyaviy yondashuvlarga qaratilgan bo'lib, boshlang'ich ta'lim mazmunini aynan aksiologik paradigma asosida tizimlashtirishning kompleks metodik mexanizmi, uning integrativ modeli va didaktik tamoyillari alohida konsepsiya sifatida yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Metodologik jihatdan tadqiqot L.S.Vigotskiyning ijtimoiy-konstruktivistik nazariyasi, J.Dyuining tajribaga asoslangan ta'lim modeli, T.Kunning "ilmiy paradigma" konsepsiyasi, shuningdek, milliy pedagogik meros (A. Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari) g'oyalari tayanadi. Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va didaktik modellashtirish metodlaridan foydalanildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda boshlang'ich ta'lim mazmunini aksiologik paradigma asosida tizimlashtirishning didaktik va aksiologik tamoyillarini aniqlash hamda ularning pedagogik imkoniyatlarini asoslash maqsadida nazariy va metodologik yondashuvlar majmuasidan foydalanildi.

Tadqiqotning metodologik asosini aksiologik yondashuv, tizimli yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyalari tashkil etdi. Shuningdek, L.S.Vigotskiyning ijtimoiy-konstruktivistik nazariyasi, J.Dyuining tajribaga asoslangan ta'lim g'oyalari, T.Kunning paradigma haqidagi konsepsiyasi hamda milliy pedagogik meros vakillarining qarashlari nazariy asos sifatida qabul qilindi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- nazariy tahlil metodi - falsafiy, pedagogik, psixologik va didaktik adabiyotlarni o'rganish hamda umumlashtirish;
- qiyosiy tahlil metodi - xorijiy va mahalliy ilmiy manbalarda aksiologik yondashuvning talqinlarini taqqoslash;



- tizimli tahlil metodi - boshlang'ich ta'lim mazmunining tarkibiy qismlari va ular o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlash;
- kontent-tahlil metodi - davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va darsliklar mazmunida aks etgan qadriyatli komponentlarni tahlil qilish;
- didaktik modellashtirish metodi - aksiologik paradigma asosida ta'lim mazmunini tizimlashtirishning konseptual pedagogik modelini ishlab chiqish.

Tadqiqot davomida boshlang'ich ta'lim mazmunini tashkil etuvchi bilim, ko'nikma, kompetensiya va qadriyatlar tizimi o'zaro aloqadorlikda tahlil qilindi. Natijada ta'lim mazmunini tizimlashtirishning inson qadriyatlarining oliy mezon sifatida tan olish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi, innovatsionlik, tizimlilik hamda amaliyotga yo'naltirilganlik kabi didaktik va aksiologik tamoyillari ilmiy jihatdan asoslandi. Shuningdek, aksiologik paradigmanning tarkibiy komponentlari va ularning pedagogik funksiyalari aniqlashtirilib, boshlang'ich ta'lim mazmunini takomillashtirishga qaratilgan konseptual model ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijasida boshlang'ich ta'lim mazmunini aksiologik paradigma asosida tizimlashtirishning quyidagi yetakchi tamoyillari ajratildi:

1. Inson qadriyatlarining oliy mezon sifatida tan olish tamoyili - ta'lim mazmunini tanlash va tashkil etishda o'quvchining shaxsiy qadr-qimmatini, ehtiyojlari va individual xususiyatlari ustuvor pedagogik qadriyat sifatida qabul qilinadi. Bu tamoyil ta'lim jarayonini standartlashtirilgan bilimlar translyatsiyasidan shaxsning ichki imkoniyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan dinamik tizimga aylantiradi;
2. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi tamoyili - mazmunga milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik va xalqning tarixiy tajribasi bilan birga global madaniy qadriyatlarga ochiqlik va bag'rikenglik singdiriladi;
3. Innovatsionlik tamoyili - qadriyatga yo'naltirilgan interfaol metodlar, raqamli resurslar, virtual laboratoriyalar va loyihaviy topshiriqlardan foydalaniladi hamda qadriyatlar "tajriba ichidan" his etiladi;
4. Tizimlilik tamoyili - qadriyatlar bitta fan doirasida emas, balki ona tili, o'qish savodxonligi, matematika va tarbiya fanlari mazmuni orqali fanlararo integratsiya asosida kompleks shakllantiriladi;
5. Amaliyotga yo'naltirilganlik tamoyili - qadriyatlar real hayotiy vaziyatlar, rolli o'yinlar, refleksiv mashqlar va sinfdan tashqari ijtimoiy faoliyat orqali tatbiq etiladi.

Tanlab olingan qadriyatlar quyidagi talablarni qondirishi shart: jamiyatning umumiy axloqiy normalariga mos kelishi, insonparvarlik mohiyatiga ega bo'lishi, o'quvchining shaxsiy ehtiyoj va xususiyatlariga moslashishi, real amalga oshirish imkoniyatlariga mos kelishi hamda aniqlik va ichki ziddiyatsizlik xususiyatlariga ega bo'lishi. Mazkur tamoyillar aksiologik paradigmanning besh komponentli tuzilishi bilan uzviy bog'liq. Komponentlarning mazmuni va pedagogik funksiyasi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval: Aksiologik paradigmanning boshlang'ich ta'limdagi pedagogik komponentlari

Komponent	Mazmuni	Pedagogik funksiyasi	Natijasi
Qadriyatli	Milliy va umuminsoniy qadriyatlar tizimi	Shaxsning ma'naviy yo'nalishini shakllantirish	Axloqiy ong va qadriyatli munosabat rivojlanadi
Kognitiv	Qadriyatlar haqidagi bilim va tushunchalar	Ongli idrok va qadriyatli tafakkurni rivojlantirish	O'quv materialini mazmunan anglash kuchayadi
Faoliyatli	Qadriyatlarini amaliy faoliyatga tatbiq etish	Hamkorlik va ijtimoiy faoliyatni rivojlantirish	Kommunikativ faollik ortadi
Refleksiv	O'z faoliyatini tahlil qilish va baholash	Mustaqil fikrlashni shakllantirish	Refleksiv kompetensiya rivojlanadi
Integrativ	Ta'lim, tarbiya va rivojlantirish uyg'unligi	Pedagogik jarayon yaxlitligini ta'minlash	Fanlararo integratsiya va tizimlilik kuchayadi

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, aksiologik paradigma ko'p komponentli pedagogik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, qadriyatli va refleksiv komponentlarning uyg'unligi o'quvchilarda ongli munosabat, mustaqil fikrlash va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishda muhim pedagogik omil hisoblanadi. Ushbu komponentlarning o'zaro integratsiyasi o'quvchilarda "mazmun-qadriyat-faoliyat-refleksiya" zanjiri asosida qadriyatli kompetensiyalarni shakllantiradi.

Belgilangan tamoyillar asosida boshlang'ich ta'limni tizimlashtirishning konseptual modeli ishlab chiqildi. Modelning markazida maqsad - o'quvchilarda qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirish - turadi va u "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, davlat ta'lim standartlari hamda "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da belgilangan ijtimoiy buyurtma bilan uyg'unlikda shakllantiriladi. Model quyidagi o'zaro bog'liq bloklardan iborat:

- metodologik yondashuvlar - aksiologik, shaxsga yo'naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlar uyg'unligi;
- mazmuniy blok - savodxonlik bilan birga sinfdan tashqari o'qish faoliyatlari orqali qadriyatli munosabat tajribasini rivojlantirish;
- metodlar tizimi - suhbat va dialog, muammoli vaziyat, "aqliyl hujum", loyiha va ijodiy faoliyat, refleksiya;
- shakllar - jamoaviy faoliyat, yakka tartibdagi mashg'ulot, guruhli hamkorlik, juftliklarda ishlash, dars va darsdan tashqari tadbirlar, tarixiy obidalarga sayohat;
- vositalar - bolalar adabiyoti, o'qish mashg'ulotlari, bahs-munozaralar, rolli o'yinlar, multimedia resurslari;
- refleksiv blok - o'quvchining o'z fikr va qarashlarini tahlil qilishi, qadriyatlarni ichkilashtirishi;
- baholash bloki - qadriyatli kompetensiyalarning shakllanganligini past, o'rta va yuqori darajalarda aniqlash.

Modelda baholash mezonlari uch darajada belgilanadi: past darajada o'quvchi qadriyat mohiyatini biladi, biroq amaliyotda qo'llashda qiynaladi; o'rta darajada qadriyatlarni to'g'ri tushunadi va kundalik faoliyatda qo'llaydi, biroq yo'l-yo'riq talab etadi; yuqori darajada qadriyatlarni chuqur anglab, ularni mustaqil va ongli ravishda hayotiy faoliyatda qo'llaydi hamda boshqalarga namuna bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Boshlang'ich ta'lim mazmunini aksiologik paradigma asosida tizimlashtirish inson qadrini oliy mezon sifatida tan olish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi, innovatsionlik, tizimlilik va amaliyotga yo'naltirilganlik tamoyillariga tayanadi. Bu tamoyillarning qadriyatli, kognitiv, faoliyatli, refleksiv va integrativ komponentlar bilan uyg'unlashuvi hamda ularning "mazmun-qadriyat-faoliyat-refleksiya" integratsiyasiga asoslangan pedagogik modelda mujassamlanishi ta'limning insonparvarlik mohiyatini kuchaytiradi va o'quvchilarda qadriyatli kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ishlab chiqilgan tamoyillar tizimi va model tarkibidan o'quv dasturlari hamda darsliklar mazmunini takomillashtirishda, pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishda samarali foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shabbazova D.R. Methodological approaches to the formation of primary education content // Journal of Academic Studies in Social Sciences. - 2025. - Vol. 4(3). - P. 45-52.
2. Shabbazova D.R. Innovative pedagogical technologies and axiological approach // International Journal of Artificial Intelligence. - 2025. - Vol. 5(3). - P. 531-534.
3. Shabbazova D.R. Boshlang'ich ta'lim mazmunini aksiologik paradigma asosida tizimlashtirish metodikasi. - T.: Fan va texnologiya, 2023. - 210 b.
4. Сластенин В.А., Чижаква Г.И. Введение в педагогическую аксиологию. - М.: Академия, 2003. - 192 с.
5. Егоров В.С., Сластенин В.А., Чижаква Г.И. Хрестоматия по педагогической аксиологии. - М.: МПСИ, 2005. - 480 с.
6. Nazarov Q. Aksiologiya. Qadriyatlar falsafasi. - T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2004. - 196 b.
7. Выготский Л.С. Психология. - М.: Мир книг, 2000. - 1008 с.
8. Каган М.С. Философская теория ценностей. - СПб.: Петрополис, 1997. - 205 с.
9. Леонтьев А.Н. Деятельностный ум (Деятельност. Знак. Личность). - М.: Смысл, 2001. - 392 с.
10. Mavlonova R., Tolipov O. Pedagogika. - T.: O'qituvchi, 2019. - 320 b.
11. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq.- T.: O'qituvchi, 1992. - 160 b.
12. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. - T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. - 448 b.
13. Dewey J. Democracy and Education. - New York: Macmillan, 1916. - 434 p.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.